

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

IMANKULOV NURBEK TURSUNKUL O'G'LI

**O'QUVCHILARNING HAYOTIY KO'NIKMALARINI STEAM
YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI
(Tabiiy fanlar misolida)**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Imankulov Nurbek Tursunkul o‘g‘li

О‘quvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini STEAM yondashuv asosida
shakllantirish metodikasi (Tabiiy fanlar misolida)..... 3

Иманкулов Нурбек Турсункул угли

Методика формирования жизненных навыков учащихся на основе
STEAM-подхода (на примере естественных наук) 19

Imankulov Nurbek

Methodology for the formation of students’ life skills based on the
STEAM approach (on the example of natural sciences)..... 37

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 41

**NAMANGAN DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA
TUZILGAN BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

IMANKULOV NURBEK TURSUNKUL O'G'LI

**O'QUVCHILARNING HAYOTIY KO'NIKMALARINI STEAM
YONDASHUV ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASI
(Tabiiy fanlar misolida)**

13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (fizika)

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Namangan-2025

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalari vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/Ped8191 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasiga (www.namdtu.uz) va Ziyonet Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ashirov Shamshidin Annazarovich
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Qodirova Feruzaxon Usmonovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Otajonov Salimjon Madraximovich
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiyaa himoyasi Namangan davlat texnika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 raqamli ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil "22" noyabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel./faks: (99869) 234-14-85; (99869) 234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz, Namangan davlat texnika universiteti 6-bino, 1-qavat, ilmiy kengash xonasi).

Dissertatsiya bilan Namangan davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (79-raqam bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 160103, Namangan shahri, Yangi Namangan tumani, I.Karimov ko'chasi, 12-uy. Tel: (99869) 234-14-85.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "8" noyabrda tarqatildi.
(2025 yil 8-noyabrdagi № 11-raqamli reestr bayonnomasi.)

U.I. Erkaboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, f-m.f.d., professor

A.A. Abdukarimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, f-m.f.d., dotsent

N.Yu.Sharibayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f-m.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda o‘qitish jarayonlarini texnologiyalashtirish, umumta’lim fanlari integratsiyasini amaliy va mantiqiy uyg‘unlikda ta’minlash asosida ta’lim samaradorligiga erishish, sifatni boshqarish paradigmasini joriy etishga alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Umumta’lim muassasalarida tabiiy va aniq fanlar, jumladan, tabiiy fanlarning globallashtirish sharoitidagi o‘rni va ahamiyati nazarda tutilib, soha pedagoglarini tayyorlashning innovatsion shakli sifatida blok-modulli tizimga asoslangan loyihalari yondashuvlar xususiyatlaridan foydalanish tendensiyalari kuzatilmoqda. Hayotiy ko‘nikmalar inson uchun ma’lum qiyinchiliklarni samarali hal qilish imkonini beruvchi moslashuvchan qobiliyatlardir. Ijtimoiy normalar, insonlarning o‘z jamoalarining faol va samarali a’zolariga aylanishiga yordam beradigan ko‘nikmalarni (Live skills) shakllantirish kelajak farovonligini ta’minlashi bilan ham dolzarb hisoblanadi.

Dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar tomonidan ta’lim texnologiyalari, o‘quv jarayonlarini loyihalash va tashkil etish muammolariga doir izlanishlar olib borilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida fan, texnika va texnologiya, muhandislik, dizayn elementlarini amaliyot bilan bog‘lab o‘rgatishning «STEAM – ta’lim» (Science – tabiiy fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – san’at, Mathematics – matematika) yondashuvi ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda¹. Mazkur tadqiqotlar ta’lim jarayonini texnologiyalashtirish nazariyasi, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va tamoyillari asosida mashg‘ulotlarni loyihalash shuningdek, ta’lim olish jarayonini matematik savodxonlik, san’at va konstruktorlik qobiliyatlari uyg‘unligida ta’minlash hayotiy ko‘nikmalarning asosi bo‘lgan tabiiy fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish maqsadiga qaratilganligi bilan muhim o‘rin tutadi.

Mamlakatimizda fan, ta’lim-tarbiya va ishlab chiqarish integratsiyasini ta’minlash, umumiy o‘rta ta’lim tizimini innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish, ta’lim shakllari va mazmunini takomillashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar, bo‘lajak tabiiy fanlar fani o‘qituvchilarini tayyorlash o‘quv faoliyati samaradorligini oshirishga doir tizimli yondashuvlar asosida tashkil etish. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Farmonida «STEAM fanlarni va tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berish, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish»² ustuvor vazifa sifatida belgilab berildi. Natijada

¹ STEAM is an innovative method of teaching and should be implemented across Europe. More and more institutions should work together to share ideas and develop further projects. Participant at steam education Conference, Porto 2019 (<https://steameducation.eu/bookinginformation.html>).

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.

tabiiy fanlar o'qituvchilarining fanini o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish, shuningdek, ta'limning keyingi bosqichiga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlashning pedagogik imkoniyatlari kengayadi. 2023-yil 11-sentyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston - 2030" strategiyasi to'g'risida"gi 158-son farmonida umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish, 2018-yil 25-yanvardagi "Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5313-son Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori, "O'zbekiston Respublikasida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lim tizimlarida o'quv dasturlarining uzviyligini ta'minlash konsepsiyalari" hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I."Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovasion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Umumta'lim muassasalarida pedagogika ta'lim sohasi bo'yicha mutaxassislar tayyorlash yuzasidan o'qitilayotgan fanlarning metodik jihatlari respublikamizda Q.T.Suyarov, Z.Sangirova, N.R.G'aybullaev, mehnat darslarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari bo'yicha A.Avazboev, R.Isyanov, R.Mavlonova, ta'lim jarayonini axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanish bo'yicha A.Abdudodirov, U.Begimkulov, S.Bulatov, M.Mamarajabov, T.Shoymardonov, G.Ergashevalar, o'quv mashg'ulotlarini loyihalab o'qitishga asoslangan ta'lim texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishda N.N.Azizxo'jaeva, R.X.Jo'raev, J.G'.Yo'ldoshev, N.A.Muslimov va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan.

MDHda tabiiy fan o'quv fanlarini o'qitish va o'quv mashg'ulotlari loyihalarini tuzishga yo'naltirilgan muammolarni o'rganish yuzasidan B.P.Bespalko, V.M.Monaxov, M.V.Klarin, M.I.Maxmutov, V.A.Slastenin, V.S.Lerner, F.Yanushkevich kabi pedagoglarning ishlari mavjud.

Shuningdek, xorijiy davlat olimlari pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish muammolari T.Sakomoto, B.S.Bloom, C.W.Cobb, P.H.Douglas, G.Pimbley, o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirishning turli jihatlari N.Chomsky, J.Jarmul, F.Carton, M. Grammont, P.Leon, A.Martinet va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

O'rganilgan adabiyotlarda umumta'lim muassasalarida STEAM yondashuvi asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashning metodik jihatlari takomillashtirish, umumta'lim muassasalarida "Tabiiy fanlar" fani o'quv mashg'ulotlarini

ta'lim texnologiyasi va tamoyillari asosida loyihalashni pedagogik muammo sifatida tadqiq etishni taqozo qiladi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Guliston davlat universiteti ilmiy tadqiqot rejasi doirasida AIF 1/2 raqamli "Oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirishda klasterli yondashuv: Guliston davlat universiteti va ishlab chiqarish integratsiyasi tizimida "O'quv-metodik kompleks" tashkil etish" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi umumta'lim muassasalarida "Tabiiy fanlar"ni STEAM yondashuvi asosida o'qitish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

umumta'lim muassasalarida STEAM yondashuvi asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish hamda loyihalashning metodik (maqsad, mazmun, metod va vositalar) jihatlarini takomillashtirish;

"Tabiiy fanlar" o'quv mashg'ulotlarini STEAM yondashuvi asosida o'qitishning zamonaviy konsepsiyasini takomillashtirish asosida tabiiy fanlarni STEAM yondashuvi asosida o'qitishni tashkil etishning metodik modelini ishlab chiqish;

o'quv mashg'ulotlari STEAM yondashuviga asoslangan tabiiy fanlar o'quv fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish;

o'quvchilarning STEAM yondashuvi asosida shakllangan "Tabiiy fanlar" bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlarini hamda tegishli tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni STEAM yondashuvi asosida o'qitish jarayoni belgilanib, tajriba sinov ishlariga jami 556 nafar respondent jalb etildi.

Tadqiqotning predmeti "Tabiiy fanlar" fani o'quv mashg'ulotlarini STEAM yondashuvi asosida o'qitish mazmuni, shakl, metod va vositalaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlar, o'quv dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil etish va umumlashtirish, Maktablarda "Tabiiy fanlar" fanini o'qitish jarayonini kuzatish va tahlil qilish, suhbat, anketa, kuzatish, test so'rovlari, tajriba-sinov ishlarini o'tkazish hamda natijalarini olishda matematik-statistik metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

umumta'lim muassasalarida STEAM yondashuvi asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashning metodik jihatlarini o'qitishning zamonaviy konseptual dasturi (faollashtiruvchi, rivojlantiruvchi, yangi axborot vositalarini qo'llashga asoslangan) pedagogik jarayonlarda amaliyot, yaxlitlik, mustaqillashuv, harakat elementlarining proporsionalashuviga (shaxsga yo'nalganlik, individual ishlash, erkinlik) ustuvorlik berish asosida ishlab chiqilgan;

"Tabiiy fanlar" o'quv mashg'ulotlarini STEAM yondashuvi asosida o'qitishning zamonaviy konsepsiyasini takomillashtirish asosida tabiiy fanlarni STEAM yondashuvi asosida o'qitishni tashkil etishning metodik modeli o'quv mashg'ulotlari "katta", "o'rta" va "kichik" modulli STEAM yondashuviga

asoslangan bosqichlari (STEAM yondashuviga asoslangan algoritmi, matn ssenariysi, baholash) funksional amallarning ketma-ketlik traektoriyasi mazmunini (maqsad va tushunchalar, mezon, vosita, matn) belgilash asosida aniqlashtirilgan;

o'quv mashg'ulotlari STEAM yondashuviga asoslangan tabiiy fanlar o'quv fanini o'qitish metodikasi STEAM yondashuviga asoslangan texnologiyasi umumiy va xususiy metodologiyalarni ajratish, o'quv modullari va o'quv harakatlari integrasiyalashuv jarayonlari (rejalashtirish, hamkorlik bosqichi, tashkiliy-didaktik ta'minlash) mohiyatini ochib berish (zamonaviy ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda o'qituvchi faoliyatining ketma-ketligi) asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarning STEAM yondashuvi asosida shakllangan "Tabiiy fanlar" bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari ijodiy-intellektual topshiriqlarga (prognoztik, tanqidiy baholovchi, kreativlikni aniqlovchi) amaliy tus berish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumta'lim muassasalarida "Tabiiy fanlar" fanini STEAM yondashuvi asosida o'qitish jarayonida nazariy va amaliy mashg'ulotlarini amaliyotga joriy etish metodikasi o'quvchilar bilishini faollashtirgan va fanni o'zlashtirish sifat-samaradorligini oshirish imkoniyatini beradigan hamda STEAM yondashuvi asosidagi didaktik modeli ishlab chiqilgan;

o'quv mashg'ulotlari "katta", "o'rta" va "kichik" modulli STEAM yondashuviga asoslangan bosqichlari (STEAM yondashuviga asoslangan algoritmi, matn ssenariysi, baholash) funksional amallarning ketma-ketlik traektoriyasi mazmunini (maqsad va tushunchalar, mezon, vosita, matn) belgilab. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar pedagogik texnologiya tamoyillari asosida o'quv mashg'ulotlari loyihasini tuzishga, o'qitish sifati va samaradorligini oshirishga imkon bergan;

fanni o'qitishda ko'rgazmali, amaliy, nazariy hamda metodik va loyihalab o'qitish jarayonlarini o'z ichiga olgan "Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan va o'zlashtirish sifat-samaradorligini oshirish imkoniyatini bergan;

texnikum va akademik litseylar uchun "Texnikum va akademik litseylarda tabiiy fanlar fanini o'qitishda umumlashtiruvchi darslarning mazmuni va metodikasi" nomli monografiya ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot ishida qo'llanilgan yondashuv, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-metodik anjuman materiallari to'plami, Oliy attestasiya komissiyasi ro'yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, nashr qilingan monografiya, o'quv-uslubiy qo'llanma, respondentlar bilan o'tkazilgan savol-javob, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga tatbiqi, tajriba-sinov ishlari tahlili va samaradorligi statistik metodlari vositasida asoslanganligi, mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi yuzasidan berilgan xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy

etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilgan pedagogik texnologiyalar asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalash usullari, Tabiiy fanlar fani mazmuni (zamonaviy ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishda o'qituvchi faoliyatining ketma-ketligi) takomillashtirilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati fan mazmunini takomillashtirishda tavsiya etilgan loyihalash usullarini optimallashtirish samaradorligi, loyihalash tartibi, usullarini tanlash va amaliyotga joriy etish yuzasidan ishlab chiqilgan metodika, tadqiqot natijalari va tavsiyalaridan matematika turkumidagi fanlarning o'quv mashg'ulotlarini loyihalashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumta'lim muassasalarida Tabiiy fanlar fani o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirib o'qitish shart-sharoitlarini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida:

umumta'lim muassasalarida STEAM yondashuvi asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashning metodik jihatlari o'qitishning zamonaviy konseptual dasturi (faollashtiruvchi, rivojlantiruvchi, yangi axborot vositalarini qo'llashga asoslangan) pedagogik jarayonlarda amaliyot, yaxlitlik, mustaqillashuv, harakat elementlarining proporsionalashuviga (shaxsga yo'nalganlik, individual ishlash, erkinlik) ustuvorlik berish asosida ishlab chiqishga doir takliflardan "Elektrotexnika va elektronika" nomli metodik qo'llanma ishlab chiqishda foydalanilgan (Guliston davlat universiteti o'quv uslubiy kengashining 2023-yil 25-oktabrdagi hamda universitet rektorining 2023-yil 31-oktabrdagi 172-son buyrug'uga asosan 172-08-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, umumta'lim muassasalarida STEAM yondashuvi asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish hamda loyihalashning metodik jihatlari tahlil qilishga erishilgan;

"Tabiiy fanlar" o'quv mashg'ulotlarini STEAM yondashuvi asosida o'qitishning zamonaviy konsepsiyasini takomillashtirish asosida tabiiy fanlarni STEAM yondashuvi asosida o'qitishni tashkil etishning metodik modeli o'quv mashg'ulotlari "katta", "o'rta" va "kichik" modulli STEAM yondashuviga asoslangan bosqichlari (STEAM yondashuviga asoslangan algoritmi, matn ssenariysi, baholash) funksional amallarning ketma-ketlik traektoriyasi mazmunini (maqsad va tushunchalar, mezon, vosita, matn) belgilash asosida aniqlashtirishga doir takliflardan "Uzluksiz ta'limdagi tendensiyalar va zamonaviy yondashuvlar" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Guliston davlat universiteti o'quv uslubiy (Guliston davlat universiteti o'quv uslubiy kengashining 2025-yil 7-maydagi hamda universitet rektorining "103-son O" buyrug'uga asosan 103-11-sonli nashr guvohnomasi). Natijada, "Tabiiy fanlar" o'quv mashg'ulotlarini STEAM yondashuvi asosida o'qitishning zamonaviy konsepsiyasini takomillashtirish imkoniyatlari kengaytirilgan;

o'quv mashg'ulotlari STEAM yondashuviga asoslangan tabiiy fanlar o'quv fanini o'qitish metodikasi STEAM yondashuviga asoslangan texnologiyasi umumiy va xususiy metodologiyalarni ajratish, o'quv modullari va o'quv

harakatlari integrasiyalashuv jarayonlari (rejalashtirish, hamkorlik bosqichi, tashkiliy-didaktik ta'minlash) mohiyatini ochib berish (zamonaviy ta'lim texnologiyasini ishlab chiqishda o'qituvchi faoliyatining ketma-ketligi) asosida takomillashtirishga oid takliflardan tajriba sinov jarayonida o'quvchilarning STEAM yondashuvi asosida shakllangan "Tabiiy fanlar" bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari ijodiy-intellektual topshiriqlarga (prognozlik, tanqidiy baholovchi, kreativlikni aniqlovchi) amaliy tus berish asosida takomillashtirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'lim vazirligi Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universitetining 17.05.2025. 11-05-3202/04 son ma'lumotnomasi). Natijada, o'quvchilarning STEAM yondashuvi asosida shakllangan "Tabiiy fanlar" bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholash samaradorligi oshishiga erishilgan;

o'quvchilarning STEAM yondashuvi asosida shakllangan "Tabiiy fanlar" bo'yicha bilim va ko'nikmalarini baholash mezonlari ijodiy-intellektual topshiriqlarga (prognozlik, tanqidiy baholovchi, kreativlikni aniqlovchi) amaliy tus berish asosida takomillashtirishga oid xulosa va takliflar bilan O'zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi "Sirdaryo teleradiokanali" davlat muassasasining 15.03.2025-yil "Assalom Sirdaryo" dasturida tanishtirildi (Sirdaryo viloyat teleradiokompaniyasining 2025-yil 15-martdagi 98-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, dars mashg'ulotlarini loyixalash asosida tuzish va o'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarini, bilimlarini o'zlashtirishlarini, ijodkorligini rivojlantirish muayyan texnologik, tanqidiy va muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta, jumladan 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish, shulardan 1 ta o'quv qo'llanma, O'zbekiston respublikasi Oliy attestatsiya kommissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta ilmiy maqola, jumladan 4 tasi Respublika va 5 tasi xalqaro jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 109 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"O'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarni STEAM**

yondashuv asosida shakllantirishning nazariy asoslari” deb nomlangan birinchi bobida umumta’lim muassasalari o‘quvchilarida hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari xamda o‘quv mashg‘ulotlarida STEAM yondashuviga asoslangan didaktik shart-sharoitlari bayon etilgan.

Zamonaviy ta’limning mazmuni — inson hayot faoliyatida zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalarni shakllantirishdan iborat. Bu jarayon esa, albatta, qo‘llaniladigan pedagogik va psixologik texnologiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Bu metodlar amaliyotga yo‘naltirilgan, hisob-kitobli pedagogik yaxlitlikdir. Mazkur yondashuv ta’limni davom ettirish uchun zarur bo‘lgan savodxonlik, bilim, malaka va ko‘nikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy asoslariga ega. Ularda belgilanishicha, pedagogikaning bugungi vazifasi o‘quvchiga faqatgina bilim berish emas, balki ta’lim oluvchilarning hayotiy ko‘nikmalarini ham rivojlantirishdan iborat. Bu jarayon keng qamrovli bo‘lib o‘z oldiga bir qancha talablarni qo‘yadi va turlicha qarashlarga olib keladi.

Adabiyotlarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirishning nazariy asoslari “yaqin rivojlanish zonasi” (L.S.Vigotskiy), “kognitiv rivojlanish nazariyasi” (J.Piaje), hayotiy ko‘nikmalarning ijtimoiy muhit, kuzatish va taqlid qilish jarayonida shakllanishini (Albert Bandura), shaxsning qiziquvchanlik, erkin fikrlash, improvizatsiya qilish qobiliyati (G.O.Abduraimova), vaqtni va kuchini baholashni, o‘z intilishlar darajasining realligini aniqlash (A.A.Abdudodirov) hamda uning: muloqat, chidam (ko‘nikish) va qaror qabul qilish kabi kategoriyalarga ajratiladi. Bu o‘quvchilarning o‘zaro muloqot qilishi, ko‘nikish va qaror qabul qila olish ko‘nikmalarini faoliyatga, hayotga tez moslashish (adaptatsiya, mobillik) jarayonida o‘ta muhimdir. Hayotiy ko‘nikmalar — bu odamlarning hayot talablari va qiyinchiliklarini samarali hal qilish imkonini beruvchi moslashuvchan xatti-harakatlar ekanligi ta’kidlanadi. Shuningdek, hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirish borasidagi tadqiqotlar (Robert Root-Bernshteyn) Lui Pasterdan tortib Albert Eynshteyngacha o‘rganish natijalari muvaffaqiyatlarga ijodiy fikrlash, san’at ularning bilish qobiliyatini oshirishi, xotira va e’tibor rivojlanishi (E.G‘oziyev, M.Davletshin, V.Karimova), bu esa ta’lim jarayoniga ijobiy ta’sir qilishini ko‘rsatdi. Bu talablarga javob beradigan STEAM ta’lim tizimi asosida dars jarayonlarini tashkil qilish kerak degan xulosaga olib keladi. STEAM yondashuv ososida o‘qitish inson miyasining ikkala yarim sharidan bir vaqtning o‘zida foydalanish imkonini beradi. STEAM yondashuvining asosiy vazifasi o‘quvchilarning nazariy bilimlarini hayotiy holatlarda qo‘llay olishga (Jon Dyui, Sh.Qo‘shqarova) o‘rgatishdan iborat.

Bugungi kunda zamonaviy ta’lim texnologiyalari tamoyillari asosida o‘quv jarayonini loyihalashtirish va tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda. STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi bu yo‘nalishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, fanlar integratsiyasi orqali ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Tabiiy fanlar fanlarini STEAM yondashuvi asosida o‘qitish o‘quvchilarning ijodiy, amaliy va innovatsion fikrlashini rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida muayyan samaradorlikka erishish bilan bir qatorda barkamol shaxs va malakali mutaxassisni

tarbiyalashga imkon beradi. Ta'lim jarayonida fanlarni integratsiya qilish (Rodjer Bayb) o'quvchilarning tanqidiy va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bunday yondashuv ta'limning turli yo'nalishlarini bog'lash orqali o'quvchilarning ijodiy tafakkurni rivojlantirish, o'quvchilarning fanga qiziqishini oshirish shuningdek, shaxsiy loyihalarda ishtirok etish imkoniyatini berishi bilan yoshlarning ta'lim-tarbiyasida muhimdir.

Shunday qilib, umumta'lim muassasalarida STEAM yondashuvi asosida o'quv mashg'ulotlarini loyihalashning metodik jihatlari o'qitishning zamonaviy konseptual dasturi ta'lim jarayonini faollashtiruvchi, rivojlantiruvchi hamda yangi axborot vositalarini qo'llashga asoslangan bo'lishi talab qilinadi. Pedagogik jarayonlarda nazariya va amaliyotning yaxlitligi, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish faoliyati elementlarining individuallashtirilganligiga ustuvorlik berish muhimdir.


Dissertasiyaning ikkinchi bobi "**O'quvchilarning hayotiy ko'nikmalarni STEAM yondashuv asosida shakllantirish metodikasi**" deb nomlangan bo'lib unda, quyi sinflarda tabiiy fanlarni STEAM yondashuvi asosida o'qitishni tashkil etishning metodik modeli, tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida STEAM yondashuvi asosida tuzish metodikasi hamda "Tabiiy fanlar" fani o'quv mashg'ulotlari STEAM yondashuvi asosida tuzish va ta'lim jarayoniga tatbiq etish amaliyoti xususida fikr yuritiladi.

Adabiyotlarda ta'lim texnologiyasining innovatsion modelini ma'lum vaqt va mavjud sharoitda belgilangan maqsadni amalga oshirish va bashorat qilingan o'quv natijalariga erishishni kafolatlaydigan ta'limning eng maqbul shakli, vositasi, usuli, metodikasi va texnologiyasining majmui sifatida baholashadi.

Ma'lumki modellashtirish farazni isbotlashda yoki uni chuqur tahlil qilishda alohida o'rin tutadi. Model B.I.Glinskiy, A.I.Uemovlarning fikriga ko'ra, ilmiy bilish vositasi bo'lib, voqelikdagi murakkab hodisalarni soddalashtirilgan shaklda o'rganish imkonini beradi, V.A. Shtoff esa, "obyektning muhim tomonlarini ifodalovchi sun'iy yaratilgan analogdir" degan ta'rifini beradi va uni ikki asosiy toifaga ajratadi: ikonik modellar — bu grafiklar, diagrammalar, chizmalar, sxemalar kabi ko'rgazmali tasvirlardir hamda belgili (ramziy) modellar — bu formulalar, tenglamalar, matematik belgilar va tushunchalardir. Bundan tashqari, modellar funksiyasiga qarab: statik, dinamik, umumlashtiruvchi va xususiy turlarga ham bo'linadi. Masalan, sxema — mavhum g'oyani ko'rgazmali ifodalashga xizmat qiladi.

Shunday qilib modellashtirishning aqliy shaklini — fikrlash deb olsak, eksperimenti — ilmiy-ijodiy jarayonning muhim komponentidir. Bu uslub sun'iy yaratilgan sharoitda model bilan fikriy harakatlarni amalga oshirishni anglatadi. Yuqoridagi bildirilganlar asosida fikrlash tajribasini aqliy modelni shakllantirish, shartli qurilmalar va ta'sirchan omillarni modellashtirish, modelga ongli ta'sir ko'rsatish orqali eksperiment o'tkazish hamda ilmiy qonuniyatlarga tayangan holda natijalarni tahlil qilish kabi bosqichlarga ajratish mumkin. Tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida STEAM yondashuvi asosida tuzish metodikasi: **fanlararo integrasiya, unda** biologiya, kimyo, tabiiy fanlar, matematika va muhandislik kabi fanlarni birgalikda o'qitish, **loyiha asosida o'qitishda** o'quvchilarning tabiiy

fanlar bo'yicha turli loyihalarni ishlab chiqish va amaliy tadqiqotlar o'tkazishi nazarda tutiladi.



1-rasm. Tabiiy fanlarni STEAM yondashuvi asosida o'qitishni tashkil etishning metodik modeli

Shuningdek, **tajriba va modellashtirish** (laboratoriya qurilmalari, simulyasiyalardan va kompyuter modellashtirish), **kreativ yondashuv** (san'at va dizayn elementlarini joriy etish orqali ijodiy tafakkurni rivojlantirish) hamda raqamli platformalar, sun'iy intellekt va robototexnika kabi texnologiyalarni ta'lim jarayoniga jalb etishga qaratilgan **zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish** kabi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi.

Mashg‘ulotni loyihalashning innovasion pedagogik texnologiya tamoyillari

Bosqich	Amalga oshirilgan ishlar mazmuni
Birinchi	Pedagogik texnologiya majmular nazariyasidan kelib chiqqanligini inobatga olgan holda “Tabiiy fanlar” fani o‘quv mashg‘ulotlari loyihalash va tashkil qilishda obyektiv borliqni anglashga yo‘naltirilgan “STEAM yondashuv” tamoyiliga hamda uning qonun-qoidalariga amal qilindi.
Ikkinchi	“Tabiiy fanlar” fanini loyihalab o‘qitishni tashkil qilishda didaktika (ta’lim nazariyasi)ning barcha prinsiplari va qonun-qoidalaridan kelib chiqildi. Tadqiqotning tajriba-sinov jarayonida ishtirok etgan professor-o‘qituvchilar didaktikani yaxshi o‘zlashtirib olishga katta e’tibor qaratildi va undan o‘quv amaliyotda foydalana olish ko‘nikmalari rivojlanirildi.
Uchinchi	O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash asosida o‘qitishni tashkil qilishda “maqsad va maqsadchalar”, “ularga ajratilgan vaqt”, beriladigan bilimlar ichidagi “tayanch tushunchalar”, “dars turi va bosqichlari”, “pedagogik uslublar”, “axborot texnologiyalari” va “didaktik materiallar” kabi elementlariga o‘zaro uzviy, ya’ni funksional bog‘liqlikda bo‘lgan yaxlitlik sifatida qaraldi.
To‘rtinchi	Mashg‘ulotlari loyihalarini STEAM yondashuvi asosida tashkil qilishda o‘quvchilar egallashlari zarur bo‘lgan bilimlarning mustaqil o‘zlashtirilishga urg‘u berildi. Bilimlar faol harakat va mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalari natijasida o‘z ustida mustaqil ishlash mexanizmi yaratildi.
Beshinchi	O‘quv jarayonini tashkil qilishda o‘quvchi egallanadigan bilimlarni anglashlari, xotirasida saqlashlari va amaliyotda qo‘llay olishlari bir vaqtning o‘zida olib borildi. Bunda nazariyani amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasi shakllantirildi.
Oltinchi	O‘quvchilarnig mashg‘ulot yakunida erishiladigan natijalarning fe’llar shaklida bo‘lishi ta’minlandi. Bunda yakunda erishilishi zarur bo‘lgan ish-harakatlar tizimi ishlab chiqildi va loyihalarda belgilab qo‘yildi.
Yettinchi	Kichik modullari orqali beriladigan bilimlardan tayanch tushunchalar aniqlanib olindi, o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash uchun savollar tuzildi va nazorat turi belgilab qo‘yildi.
Sakkizinchi	O‘quv jarayoni yakunida oldindan mashg‘ulot uchun aniqlangan baholash turi va mezonlari asosida o‘zlashtirganlik darajasi aniqlandi. Mashg‘ulotda didaktika prinsiplari, qonun-qoidalari, sistemali yondashuv va pedagogik texnologiya tamoyillariga tayanilishi belgilandi.

Loyiha tuzishda qaysi o‘rinda qanday bilim egallanadi, uni egallash jarayonida didaktikaning qaysi qonun-qoida va prinsiplariga amal qilinadi, o‘quv jarayonida qaysi dars turi va bosqichlari, qanday usullar, axborot texnologiyalari va didaktik materiallardan foydalaniladi, degan vazifalar aks ettirildi.

Loyiha o‘quv jarayonini yaxshi yoki a‘lo bo‘lishini kafolatlaydi hamda o‘qituvchi faoliyatini to‘g‘ri tashkil etishga zamin yaratadi. Bu ish tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonini loyihalashtirishdan foydalanilgan holda amalga oshirildi (2-rasm).

“Tabiiy fanlar” fanini o‘qitish metodikasini: Umumiy metodikaning xususiy masalalari va xususiy metodikaning aniq masalalari kabi ikki qismga ajratish mumkin. Masalan, a) II sinfda “Tabiiy fanlar” darslarini rejalashtirish va uni o‘tkazish metodikasi deyilsa, bu umumiy metodikaning xususiy masalasi hisoblanadi. b) II sinfda “Tabiatda fasllar almashinuvi” mavzusidan bir soatlik darsni rejalashtirish va uni o‘tkazish metodikasi deyilsa, bu xususiy metodikaning aniq masalasi hisoblanadi.

Shu tarzda, “Tabiiy fanlar” fanini o‘qitishda umumiy va aniq metodik masalalar ajratib olinib, ularning har biri o‘quv jarayonida turlicha yondashuvni talab qiladi. Pedagogik texnologiya milliy modeli va tamoyillari asosida har bir mashg‘ulot loyihalarining tuzilishi fanni o‘qitishning zamonaviy konsepsiyasida innovasiya sifatida talqinqilinadi.

Darslarni rejalashtirishda o‘qituvchi har bir faoliyat turi uchun aniq maqsad va kutilayotgan natijalarni belgilab olishi zarur. Masalan, STEAM ta‘limi bo‘yicha olimpiadala o‘tkazilishi ham samarali natija beradi. Masalan, “Individual ta‘limda STEAM” intellektual olimpiadasini o‘tkazishdan maqsad o‘quvchilarnig intellektual salohiyatini, kreativligini oshirish, ularning ilmiy ma‘lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalarini, axborot texnologiyalari, muhandislikka oid bilimlarini, kompetensiyalarini, qobiliyatlarini jamoada yuzaga ishlash malakalarini rivojlantirishdan iborat.

Dissertasiyaning uchinchi bobi **“O‘qitish samaradorligi va tadqiqotning tajriba-sinov natijalari”** deb nomlangan. Unda “Tabiiy fanlar” fani o‘quv mashg‘ulotlarini STEAM yondashuv asosida o‘qitish samaradorligi bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish xamda tajriba-sinov ishlarining natijalari bayon qilingan.

Umumta‘lim muassasalarida “Tabiiy fanlar” fani o‘quv mashg‘ulotlarini STEAM yondashuvi asosida o‘qitish bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini tashkil qilish dasturi ishlab chiqildi. Respublikamizning uchta mintaqasidagi umumta‘lim muassasalarida, xususan, Sirdaryo, Buxoro, Farg‘ona viloyatlarida o‘tkazildi Tanlangan yo‘ldan og‘ishmaslik maqsadida pedagogikada baholashning axborot ta‘minoti va texnologiyasiga xos bo‘lgan metodik jihatlarga to‘xtalinib, statistikaning tanlanma usuli keng qo‘llanildi. Tanlanmada reprezentativlikning majorantlik (ustunlik) prinsipidan foydalanildi.

Birinchi qilingan ish: "Tabiiy fanlar" fani dasturini shartli ravishda yuqori ierarxiya pog'onadagi "Eng katta modul" deb qabul qilindi. So'ngra fan oldiga qo'yilgan ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar belgilanib, jadval shakliga keltirildi. Unda: umumiy metodologik asosi bo'lgan ta'limga sistemali yondashuv tamoyilining qonun va qoidalari e'tiborga olindi. Didaktika qonun, qoida va prinsiplari, yosh psixologiyasi va psixoanaliz qoidalari hamda pedagogik texnologiya tamoyillari belgilab olindi.



Ikkinchi qilingan ish: "Tabiiy fanlar" o'quv fani, ya'ni eng katta modul ichidan "Katta modul"lar belgilab olindi va har bir katta modulning maqsadlari belgilandi.



Uchinchi qilingan ish: har bir katta modul asosida "O'rta modul"lar va maqsadlari belgilandi.



To'rtinchi qilingan ish: "Tabiiy fanlar" o'quv fani bo'yicha bir juft soatlik o'quv mashg'uloti, ya'ni o'rta moduldan "Kichik" modullar belgilab olindi. Har bir kichik modul oldiga qo'yilgan xususiy ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlar aniqlanib unga ajratiladigan vaqt ko'rsatildi. So'ng pedagogik texnologiya tamoyillaridan foydalanib, shu kichik modul yakunida o'quvchilar bajarishi shart bo'lgan ish-harakatlar mazmuni qayd etildi.



Beshinchi qilingan ish: "Tabiiy fanlar" o'quv fani o'quv mashg'ulotining har bir o'rta modullari orqali beriladigan bilimlar ichidan tayanch tushunchalar ajratilib, ular asosida o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholash uchun nazorat savollari tuzib chiqildi, baholash turi va mezonlari aniqlandi.



Oltinchi qilingan ish: "Tabiiy fanlar" fani o'quv mashg'ulotining har bir kichik modulida qo'llaniladigan dars turi va bosqichlari belgilab olindi.



Yettinchi qilingan ish: "Tabiiy fanlar" fani o'quv mashg'ulotining har bir kichik modulida qo'llaniladigan usul va metodlar ko'rsatildi.



Sakkizinchi qilingan ish: O'quvchi o'quv jarayonini amalga oshirish ssenariysi yozib chiqildi.

2-rasm. "Tabiiy fanlar" fani o'quv mashg'ulotlarini loyihalashtirish yo'riqnomasi

Tajriba-sinov boshlanishida bilim darajalarining yaqinligi mezon asosida umumta'lim muassasalarida tahsil olayotgan o'quvchilar guruhlaridan tanlanma usul bilan tajriba-sinov uchun tajriba guruhlarida 280 nafar, nazorat guruhlarida 276 nafar qatnashchining natijalari tahlil qilindi. Shu asosda pedagogik tajriba - sinov natijalari va ularning tahlili olib borildi. Tanlangan umumiy o'rta ta'lim maktablari (tajriba va nazorat guruhleri) o'quvchilariga tajriba-sinov boshida test topshiriqlari berildi va mezon asosida baholandi. O'quvchilarining tajriba va nazorat guruhlarida o'zlashtirish bahosining o'rtacha qiymati va samaradorlik

ko'rsatgichini hisoblandi. Yakuniy bosqichida olib borilgan pedagogik tadqiqot ishining matematik-statistik tahlili amalga oshirildi va natijalar umumlashtirildi. Ishonchli farqlanish darajasi 0,05 bo'lganligi uchun Pirson mezoni koeffitsiyentining qiymati jadvaldan olingan $T_{mez}=7,815$ ga teng qiymat olindi. "Xi-kvadrat" metodida hisoblanilgan T_{kuz} qiymati barcha hollarda $T_{kr} < T_{kuz}$ ekanligi aniqlandi, ya'ni Sirdaryo viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida $7,815 = T_{kr} < T_{kuz} = 10,48$, Farg'ona viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida $7,815 = T_{kr} < T_{kuz} = 10,44$ va Buxoro viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablarida $7,815 = T_{kr} < T_{kuz} = 10,52$.

2-jadval

Tajriba-sinov yakunidagi natijalar statistik tahlili

Sirdaryo viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablari											
	2	3	4	5	jami	o'rtacha	dispersiya	variatsiya koeffs.	ishonchli oraliq	xi-kvadrat statistik qiymati Kritik qiymat	Samaradorlik
Tajriba guruhi	3	32	37	29	95	3,84	0,69	21,58	3,78-3,91	10,48	1,113
Nazorat guruhi	8	47	26	12	93	3,45	0,68	23,98	3,38-3,52	7,815	
Xulosa	H ₁ gipoteza qabul qilinadi										
Farg'ona viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablari											
	2	3	4	5	jami	o'rtacha	dispersiya	variatsiya koeffs.	ishonchli oraliq	xi-kvadrat statistik qiymati Kritik qiymat	samaradorlik
Tajriba guruhi	3	37	41	26	107	3,84	0,68	21,50	3,78-3,90	10,49	1,106
Nazorat guruhi	9	51	30	14	104	3,47	0,70	24,07	3,41-3,54	7,815	
Xulosa	H ₁ gipoteza qabul qilinadi										
Buxoro viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablari											
	2	3	4	5	jami	o'rtacha	dispersiya	variatsiya koeffs.	ishonchli oraliq	xi-kvadrat statistik qiymati Kritik qiymat	samaradorlik
Tajriba guruhi	2	22	36	18	78	3,90	0,61	20,08	3,83-3,96	10,44	1,119
Nazorat guruhi	7	36	27	9	79	3,48	0,66	23,39	3,41-3,55	7,815	
Xulosa	H ₁ gipoteza qabul qilinadi										

O'quvchilaridan olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, Sirdaryo viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining samaradorligi 11,3 %ga, Farg'ona viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining samaradorligi 10,6 %ga va Buxoro viloyati umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining samaradorligi 11,9 %ga ortganligini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi 2-jadvaldagi variatsion qatorning gistogrammasi 2-rasmda keltirilgan.

Tadqiqot yakunida ishlab chiqilgan metodik tizimni pedagogik tajriba sinovga joriy qilish natijasida o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatining samaradorligi

deyarli (barcha umumiy o'rta ta'lim maktablari bo'yicha o'rtacha) 11,3 % ga oshishiga erishildi.

XULOSA

1. Umumta'lim maktablarida dars jarayonini STEAM yondashuv asosida tashkil etish, o'quvchilarning qo'l mehnati orqali bilim olishning yangi shaklini o'zlashtirishi ularda amaliy kompetensiyalarni shakllantiradi.

2. O'quvchilarda kuzatish faolligini rivojlantirish orqali ularda tabiiy-ilmiy savodxonlik va amaliy kompetensiyalarni shakllantirish imkoniyati aniqlandi

STEAM yondashuv asosida ishlab chiqilgan o'quv-amaliy o'qitish modeli o'quvchilar tomonidan fanga oid bo'lgan tushunchalarning samarali o'zlashtirishi imkon berishi tajriba — sinov jarayonida aniqland.

3. Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlarni o'qitishda STEAM yondashuv asosida loyiha ishini tashkil etilishi tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarda bilim, ko'nikma hamda fanga oid kompetensiyalarini shakllantirishda ijobiy samarasini berdi.

4. O'quvchilarning tabiiy-ilmiy bilimlarni egallash darajalari, jumladan ularning tabiiy-ilmiy savodxonligini diagnostik, formativ, summativ kabi baholash usullaridan foydalanib aniqlash, tajriba-sinov davomida samarali ekanligi aniqlandi.

5. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun "O'quvchilar erishishi lozim bo'lgan yakuniy natijalar" deb nomlangan darsni tashkil etish metodikasi tajriba-sinov davomida samarali ekanligini ko'rsatdi.

6. Tabiiy fanlarni o'qitishda "Barqaror taraqqiyot ta'limi"ga oid ma'lumotlarning ko'proq berilishi o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida (biologiya, geografiya va tabiiy fanlar yo'nalishlarida) bitiruvchilar uchun "Tabiiy fanlar" modulini kiritishni va mazkur modulni o'qitishda talabalarga "Tabiiy fanlar" bo'yicha yaratilgan "O'qituvchi" kitoblaridan foydalanishni tavsiya qilinadi.

2. Tabiiy fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga "Tabiiy fanlar" bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari tabiiy fanlar, biologiya, geografiya fan o'qituvchilari uchun tayyorlangan malaka oshirish kursi dasturidan dars mashg'ulotlarida foydalanish (Mazkur dastur dissertasiya ishida 5-ilovada keltirilgan).

3. Bugungi kunda "Tabiiy fanlar" yo'nalishi yangi o'quv predmeti, uning metodologiyasi hali to'liq o'rganilmagan, shu bois, bu yo'nalishda pedagogika oliy ta'lim muassasalari va O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi bilan hamkorlikda tabiiy fanlarni o'qitish bo'yicha darsliklar va o'quv qo'llanmalarni yaratishni hamda fanni o'qitish metodologiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish tavsiya qilinadi.

**РАЗОВЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО СОВЕТА
PHD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАМАНГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ГУЛИСТАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ИМАНКУЛОВ НУРБЕК ТУРСУНКУЛ УГЛИ

**МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЖИЗНЕННЫХ НАВЫКОВ
УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ STEAM-ПОДХОДА
(на примере естественных наук)**

13.00.02 – Теория и методика обучения и воспитания (физика)

**АВТОРЕФЕРАТ
ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ПЕДАГОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Наманган – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2024.3.PhD/Ped8191.

Диссертация выполнена в Гулистанском государственном университете.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.namdtu.uz) и информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	Аширов Шамсиддин Анназарович кандидат педагогических наук, доцент
Официальные оппоненты:	Кодирова Ферузахон Усмоновна доктор педагогических наук, профессор Отажонов Салимжон Мадрахимович доктор физико-математических наук, профессор
Ведущая организация:	Навоийский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании разового ученого совета, созданного на базе ученого совета PhD.03/30.11.2022.FM/T.66.04 по присуждению ученых степеней в Наманганском государственном техническом университете, 22 ноября 2025 года в 10⁰⁰ часов. (Адрес: 160115, город Наманган, улица Косонсой, дом 7. Тел./факс: (99869)234-14-85; (99869)234-14-85, e-mail: info@namdtu.uz, Наманганский государственный технический университет, корпус 6, 1 этаж, зал ученого совета).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Наманганского государственного технического университета. (Зарегистрировано под номером 79) Адрес: 160103, город Наманган, улица И.Каримова, дом 12. Тел.: (99869) 234-14-85.

Автореферат диссертации разослан 8 ноября 2025 года.
(протокол-реестр рассылки за № 11 от 8 ноября 2025 года)

У.И. Эркабоев
Председатель разового научного совета по присуждению ученых степеней, д.ф.-м.н., профессор

А.А.Абдукаримов
Ученый секретарь разового научного совета по присуждению ученых степеней, PhD, доцент

Н.Ю. Шарibaев
Председатель научного семинара при разовый ученом совете д.ф.-м.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое внимание уделяется технологизации учебных процессов, достижению эффективности образования на основе обеспечения интеграции общеобразовательных предметов в практической и логической гармонии, внедрению парадигмы управления качеством. Учитывая роль и значение естественных и точных наук, в том числе естественных наук, в условиях глобализации в общеобразовательных учреждениях, наблюдаются тенденции использования особенностей проектных подходов, основанных на блочно-модульной системе, как инновационной формы подготовки педагогов в данной области. Жизненные навыки – это гибкие способности человека, позволяющие эффективно решать определенные трудности. Социальные нормы и формирование навыков (Live skills), которые помогают людям стать активными и эффективными членами своих сообществ, также актуальны, поскольку обеспечивают будущее процветание.

Ведущими научными центрами мира проводятся исследования по проблемам образовательных технологий, проектирования и организации учебных процессов, и достигаются положительные результаты. В процессе преподавания естественных наук подход «STEAM – образование» (Science – естественные науки, Technology – технологии, Engineering – техническое творчество, Art – искусство, Mathematics – математика), связывающий элементы науки, техники и технологии, инженерии, дизайна с практикой, приобретает важное значение в организации учебно-воспитательного процесса¹. Данные исследования занимают важное место, так как направлены на повышение эффективности преподавания естественных наук, являющихся основой жизненных навыков, проектирование занятий на основе теории технологизации образовательного процесса, современных педагогических подходов и принципов, а также обеспечение процесса обучения в сочетании с математической грамотностью, искусством и конструкторскими способностями.

Реформы, проводимые в нашей стране по обеспечению интеграции науки, образования, воспитания и производства, развитию системы общего среднего образования на основе инновационных технологий, совершенствованию форм и содержания образования, а также организация подготовки будущих учителей естественных наук на основе системных подходов к повышению эффективности учебной деятельности. В Указе «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» в качестве приоритетной задачи определено «внедрение общеобразовательных программ и новых государственных образовательных стандартов, отвечающих требованиям современной инновационной экономики, с особым акцентом на развитие компетенций и навыков STEAM – дисциплин, критического мышления,

¹ STEAM is an innovative method of teaching and should be implemented across Europe. More and more institutions should work together to share ideas and develop further projects. Participant at steam education Conference, Porto 2019 (<https://steameducation.eu/bookinginformation.html>).

самостоятельного поиска и анализа информации»². В результате расширяются педагогические возможности совершенствования методической подготовки учителей естественных наук к преподаванию предмета, а также обеспечения успешного перехода к следующему этапу обучения.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан №158 от 11 сентября 2023 года «О Стратегии “Узбекистан – 2030”» по реализации программы «Благоприятная среда для образования» в системе общего среднего образования, Указе Президента Республики Узбекистан №УП-5313 от 25 января 2018 года «О мерах по коренному совершенствованию системы общего среднего, среднего специального и профессионального образования», Постановлении Президента Республики Узбекистан №ПП-4884 от 6 ноября 2020 года «О дополнительных мерах по дальнейшему совершенствованию системы образования и воспитания», «Концепции обеспечения преемственности учебных программ в системах дошкольного, общего среднего, среднего специального, профессионального и высшего образования в Республике Узбекистан», а также в других нормативно-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

